



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

MATN VA INSON OMILINING LINGVISTIK TALQINI

Muxtoraliyeva Mushtariy Rashidjon qizi

Fargʻona davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya.

Maqolada matn turlarining lingvistik xususiyatlari, xususan, badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy hamda soʻzlashuv uslubidagi matnlarning oʻziga xos jihatlari qiyosiy tahlil asosida koʻrib chiqiladi. Turli uslubdagi matnlarda inson omilining namoyon boʻlishi, til birliklarining emotsional-ekspressiv va pragmatik imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, tibbiy matnlar ham alohida oʻrganilib, ularning terminologik aniqligi, kommunikativ yoʻnaltirilganligi hamda shifokor-bemor munosabatidagi lingvistik ahamiyati tahlil qilinadi. Tibbiy diskursda qoʻllanadigan matnlarning ilmiy, ommabop va tavsifiy koʻrinishlari inson salomatligi, psixologik taʼsir hamda axborot yetkazish jarayonidagi oʻrni nuqtayi nazaridan baholanadi.

Kalit soʻzlar: matn, inson omili, lingvistik talqin, matn turlari, badiiy matn, ilmiy matn, publitsistik matn, rasmiy uslub, soʻzlashuv uslubi, tibbiy matn, tibbiy diskurs.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕКСТА И ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА

Мухторалиева Муштарий Рашидjon кизи

Ферганский государственный университет, магистрант

Аннотация.

В статье рассматриваются лингвистические особенности различных типов текстов, в частности своеобразие художественных, научных, публицистических, официально-деловых и разговорных текстов на основе сравнительного анализа. Раскрывается проявление человеческого фактора в текстах разных стилей, а также эмоционально-экспрессивные и прагматические возможности языковых единиц. Кроме того, отдельно исследуются медицинские тексты, анализируются их терминологическая точность, коммуникативная направленность и лингвистическая значимость во взаимоотношениях врача и пациента. Научные, научно-популярные и описательные формы текстов, используемых в медицинском дискурсе, оцениваются с точки зрения их роли в сохранении здоровья человека, психологическом воздействии и процессе передачи информации.

Ключевые слова: текст, человеческий фактор, лингвистическая интерпретация, типы текстов, художественный текст, научный текст, публицистический текст, официально-деловой стиль, разговорный стиль, медицинский текст, медицинский дискурс.

LINGUISTIC INTERPRETATION OF TEXT AND THE HUMAN FACTOR

Mukhtoraliyeva Mushtariy Rashidjon qizi

Fergana State University, Master's student

Abstract.

The article examines the linguistic features of different types of texts, in particular the specific characteristics of artistic, scientific, journalistic, official, and conversational styles based on a comparative analysis. It reveals the manifestation of the human factor in texts of various styles, as well as the emotional-expressive and pragmatic potential of linguistic units. In addition, medical texts are studied separately, analyzing their terminological accuracy, communicative orientation, and linguistic significance in doctor-patient relationships. Scientific, popular science, and descriptive forms of texts used in medical discourse are evaluated in terms of their role in human health, psychological impact, and information delivery processes. On this basis, the interrelation between text and the human factor is interpreted within the framework of the anthropocentric paradigm of linguistics.

Keywords: text, human factor, linguistic interpretation, types of texts, literary text, scientific text, journalistic text, official style, conversational style, medical text, medical discourse.

Soʻz sermazmun boʻlib, u koʻp narsalarga dalolat beradi. Bir soʻzning oʻzini turli holatlarda turlicha mazmunda qoʻllash mumkin. Binobarin, soʻzni toʻgʻri tushunish va toʻgʻri ishlatish uchun uning maʼnolarini iloji boricha mukammal bilishga urinish lozim. [1] Soʻzlar va gaplardan tarkib topgan matn ham bundan mustasno emas. Matn - nutqning koʻrinishi boʻlib, vazifasi jihatdan tugal nutqiy butunlikdir. Matn murakkab tuzilishga, oʻziga xos mazmun mundarijasiga ega boʻlib, ogʻzaki, yozma, rasmiy, ishorali shakllarda uchraydigan alohida ijod namunasi.

Matnlar turli davrlarda jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda har xil bo'lishi mumkin. Masalan, ibtidoiy davrlarda (hali yozuv kashf etilmagan vaqtlarda) insonlar rasmlar orqali, turli ishoraviy belgilar orqali fikrini bir-biriga yetkazgan. Matnlar tarixan shakllangan adabiy tilning turli ko'rinishlari bo'lib, ular fikrni ifoda etish jarayonida nutq tuzilishining o'ziga xosligi bilan farqlanadi.

Matnlar o'z tuzilishiga ko'ra gap, murakkab sintaktik butunlik, xat boshi, paragraf, bob, bo'lim va qismdan tashkil topadi. Bu birliklar matn hosil qilishda ishtirok etadi va uni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[2] Har bir matn ma'lum bir mazmunni tashiydi va zamon, makon, shaxsni inobatga olib, turli xil axborotlarni yetkazadi. Turli xil mazmundagi axborotni yetkazishiga ko'ra matnlar: badiiy matn, publitsistik matn, ilmiy matn, rasmiy matn shaklida bo'ladi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatga egadir. Badiiy matnda tasviriylik, obrazlilik, bo'yoqdorlik, hissiylik kuchli bo'ladi. Yozuvchi, ijodkor hisoblanadi. Badiiy matn barcha badiiy asarlarda (epik, lirik, drammatik turga kiruvchi) o'z aksini topadi.

1

Har bir tibbiy kitob – bitta xazina,

Har bitta so'zlari go'yo lavzina,

Ohista mag'zini chaqib borolsang,

Ulug' tabobatga boshlar bir zina.

2

Shifokor har erkim, vafolig' bo'ldi,

Qilgan har bir ishi safolig' bo'ldi,

Ochiq yuzi birla shirin so'zlari

Har qanday davodan shifolig' bo'ldi.

3

Sihat qo'rg'onining barbodi bo'lma,

Asab nozik, uning sayyodi bo'lma.

Ilmsiz shifokor go'yoki jallod

Kelgil, odamzodning jallodi bo'lma.

4

Qachonki, shifokor hoziq bo'lgusi,

So'zlari ma'naviy oziq bo'lgusi,

Shifokor fe'lida qo'pollik bo'lsa,

Bemorning joniga qoziq bo'lg'usi. [3]

Yuqorida keltirilgan nazmiy shakldagi badiiy matnda shifokorga xos xususiyatlarni, tibbiy o'gitlarni tasvirlashda ijodkor so'zning kuchini ko'rsata olgan. Obrazlilik, tasviriylik, hissiy belgining kuchliligi berilayotgan axborotning tinglovchiga ta'sir kuchini ochiradi. Yuqorida keltirilgan badiiy matnda salomatlikni—"Sihat qo'rg'oni", ilmsiz shifokorni—"asabning sayyodi", "odamzodning jallodi", tabibning so'zlari qo'pol bo'lsa—"jonning qozig'i" kabi go'zal metaforalar, moslashuvli birikmalar bilan ifodalab, ushbu tibbiy birliklarga lingvistik ko'rk kiritib, axborotni qabul qiluvchiga hissiy ruh bag'ishlaydi.

Publitsistik matn – matbuot tili bo'lib, xabar, maqola, taqriz, reportaj, ocherk, felyetonlarda o'z aksini namoyon etadi. Publitsistik uslubda yaratilgan barcha ishlar publitsistik matn sirasiga kiradi. Quyida biz publitsistik matn tarkibiga kiruvchi tibbiy mazmundagi parchani tahlilga tortamiz:

“Miya - *eng yumshoq va nafis a’zo*, uni avaylang! Ko‘pchilik odamlar miyaning nechog‘lik yumshoq va himoyasiz ekanligini bilishmaydi. Unutmang, uning 80 %i suvdan iborat, o‘zi yumshoq yog‘ ko‘rinishida bo‘ladi” (“Shifo-info” gazetasi, 06.02.2020, 4-bet).

“**Kasal sochlar** uchun. Turli soch turmaklarida kimyoviy vositalarning ishlatilishi yoki kimyoviy bo‘yoqlar bilan sochni bo‘yagandan keyin sochlar kasallanadi” (“Shifo-info” gazetasi, 31.10.2019, 26-bet).

Publitsistik uslubda yozilgan, tibbiy ma’lumotlar keltirilgan ushbu matn til xususiyatlari bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Ushbu matnda axborot berish bilan birga undash, maslahat kabi publitsistik uslubga xos tasvir vositalaridan foydalanilgan. Publitsistik uslubdagi matnlarning o‘ziga xosligi unda barcha uslub belgilarini ko‘rish mumkin. Yuqoridagi publitsistik uslubga xos tibbiy matnga diqqat qiling: miyaning ta’rifini keltirganda tasviriylikni kuchaytirish uchun *miyani—nafis a’zo*(badiiy matnga xos), ilmiylikni kuchaytirish uchun aniq fakt—*uning 80 %i suvdan iborat*(ilmiy matnga xos), sochning tasvirini keltirganda metaforik birlik—*kasal soch*(badiiy matnga xos), kabi tasvir vositalaridan foydalanilgan.

Ilmiy matn – aniqlik, qisqalikka asoslanadi. Unda gap bo‘laklari tartibi adabiy til qoidasiga qat’iy amal qilgan holda qo‘llanadi. Quyida biz tibbiy mazmundagi ilmiy matnni tahlilga tortdik:

Oshqozon yarasi (lot. *Ulcus gastrica*) — oshqozon shilliq qavatida trofik buzilishlar sodir bo‘ladigan surunkali kasallik. Oshqozon yarasi ko‘pincha 20-50 yoshli erkaklarda kuzatiladi. Kasallik bahor va kuz fasllarida tez-tez qaytalanishii bilan tavsiflanadi. Oshqozon yarasi sababi, odatda, odamning **asab tizimini** kuchlantiradigan stresslar bo‘lib, u o‘z navbatida oshqozon-ichak trakti mushaklarining va qon tomirlarining spazmlarini keltirib chiqaradi. Natijada oshqozonning qon bilan ta’minlanishi buziladi va oshqozon sharbati shilliq qavatga salbiy ta’sir ko‘rsata boshlaydi, bu me’da yaralari paydo bo‘lishiga olib keladi. Ammo oshqozon yarasining asosiy sababi *Helicobacter pylori* bakteriyalari va oshqozonning himoya mexanizmlari va agressiv omillar o‘rtasidagi muvozanat buzilishidir, ya’ni oshqozon ajratadigan shilliq pepsin (oqsillarni hazm qilish uchun javob beradigan ferment) va xlorid kislotaga qarshi bardosh bera olmaydi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bu kasallikdan dunyo aholisining 14 foizi aziyat chekadi. (<https://mymedic.uz/kasalliklar/gastroenterologiya/>)

Yuqoridagi tibbiyotga oid ilmiy matnda axborotni yetkazishda ilmiylik, adabiy til normalari, gap bo‘laklari tartibiga qat’iy amal qilingan. Qo‘shma so‘z hisoblangan (ot+ot shaklidagi) *oshqozon* so‘zining o‘zi ham inson organizmida qanday vazifani bajarishini o‘z nomi bilan ifodalagan(ya’nikim, oshqozon), shu o‘rinda buyuk qozoq yozuvchisi Abayning fikrini keltirishimiz joizdir: Nomning o‘zidan(har qanday nom,ism) narsa, jismning, asar mazmunining(asar nomidan) borliqda qanday ma’no anglatganini bilish

Rasmiy matn – davlatlarning diplomatik notalari, qonunlar, hukumat qarorlari, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e’lonlar, rasmiy ish qog‘ozlari kabilardir.

Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida:

Sog‘liqni saqlash tizimida davlat boshqaruvini takomillashtirish, birlamchi bo‘g‘inni kasalliklarni erta aniqlaydigan va davolaydigan tizimga aylantirish, raqamlashtirish ishlarini jadallashtirish, soha rivojlanishining yaqin va uzoq muddatli istiqbollarini belgilash, tibbiy xizmatlar hajmini oshirish va sifatini tubdan yaxshilash, raqobat va xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, tibbiyot xodimlarining bilimini oshirish, ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish maqsadida:

1. Vazirlar Mahkamasi hamda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Sog‘liqni saqlash vazirligi rahbariyatining asosiy faoliyat yo‘nalishlarini belgilash va quyidagi yangi boshqaruv tizimini joriy etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin:

2. 2021-yil 15-iyundan boshlab birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarida dori va tibbiy buyumlar uchun birlashtirilgan aholi jon boshiga ajratilgan mablag‘ miqdori o‘rtacha 3 baravarga oshirilsin. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent sh., 2021-yil 25-may, PQ-5124-son)

Yuqorida keltirilgan matn tibbiyotga oid rasmiy matn bo‘lib, sog‘liqni saqlashga oid Prezident qaroridir. Rasmiy matnning o‘ziga xosligi shundan iboratki, ijro kuchiga ega bo‘lib, adabiy til normalariga qat’iy bo‘ysinib, turli mazmundagi axborot keng omma uchun mo‘ljallangan bo‘ladi.

tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o‘zaro qaysidir bog‘lovchilar yordamida birikishni o‘rganish “Matn tilshunosligi” sohasining asosiy muammolaridan biridir.

Tilshunos E.Qilichev “Matnning lingvistik tahlili” nomli kitobida “Matn – hamma elementlari o‘zaro zich aloqada bo‘lgan va avtor nuqtayi nazaridan ma‘lum bir maqsadga yo‘naltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakab tuzilma” degan ta‘rifni beradi. I.Rasulov esa matnni quyidagicha

t
a Badiiy asar tili murakkab va o‘ziga xos hodisadir. Tilshunoslik, umuman, filologiya tarixida uni b‘rganishga turlicha yondashib kelingan. Badiiy asar tadqiqi bilan bir umr shug‘ullangan V.Vinogradov o‘zining “Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari ” nomli ma‘ruzasida badiiy adabiyot tili o‘g‘risida gap ketganda, “til” so‘zi ikki xil ma‘noda qo‘llanishini ta‘kidlaydi:

f — U yoki bu milliy tilning sistemasini aks ettiruvchi “nutq” yoki “matn”(adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun materiallar) ma‘nosida;

a — “san‘at tili”, badiiy ifoda vositalari sistemasi ma‘nosida. [4]

y Adabiy asar tilining bunday ikki xil talqini va shu asosda asar tili tadqiqiga ikki xil yondashuvning mavjudligi jahon olimlari tomonidan ham qayd etilgan. [5]

i Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko‘ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o‘quvchiga estetik zavq berish, ta‘sir etish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi.[6] Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta‘sirchanlik, obrazlilik, ohangdorlik birinchi planga qo‘yiladi.

Hozirgi kunda matn tushunchasi kengayib, audio matnlar, video matnlar, rasmlı matnlar, reklama namoyishli matnlar, diniy mazmundagi matnlar kabilarni o‘zida jamlagan:

Suhbat

Bir kekxa bobodan so‘rabdi hakim,

Kiribsiz yuz yoshga kirolmas har kim.

Hayot saboqlarin bilgaysiz hargiz,

Menga ham o‘rgating bilganlaringiz.

Dunyoda bir asr yashabsiz mudom,

Mehringiz o‘zgacha hayotga hamon?

Chol ma‘yus jilmayib qarab hakimga

Ey o‘g‘lim, quloq sol mening gapimga.

Qachonki noningni halol oshaysan

Sen ham mening kabi uzoq yashaysan. (Shoira To‘laganova)

Ushbu parcha badiiy matnning go‘zal namunasi bo‘lib, ham diniy, ham didaktik, ham tibbiy ma‘lumotlarni o‘zida jamlagan. Badiiy matn serqirradir. Yuqoridagi parchada uzoq umr ko‘rishning sabablaridan biri ijodkor tomonidan axborot qabul qiluvchiga ham ilmiy, ham tibbiy, ham lingvistik bilimlar umumlashgan holatda savolga javob aniq, badiiy, tasviriy qilib yetkazilgan . Badiiy matnning serqirraligining yorqin dalilidir.

Badiiy matn tarkibiga kiruvchi quyidagi tibbiy-psixologik xarakterdagi parchaga diqqat qarating:

Nemis psixoterapevti (kelib chiqishi eronlik bo‘lgan) Nusrat Pazeshkian birinchilardan bo‘lib, aynan qanday so‘zlar insonda kasallikni keltirib chiqarishini isbotlab bergan. Insonning o‘z ichki ruhiy ahvolidan kelib chiqib aytadigan so‘zlari o‘zining salomatligiga singib borar ekan. Inson fiziologik organlari ishiga bevosita ta‘sir qiluvchi so‘zlari **organik nutq** deyiladi. Qanchalik baquvvat bo‘lmang, o‘zingizga aytiladigan quyidagi so‘zlar salomatligingizga putur yetkazadi. Ba‘zi paytlarda ma‘lum qiyinchiliklar ichiga kirib borib, g‘azab, jahl, nafrat bilan aytgan so‘zlarimiz organlarimizga buyruq, komanda berish ko‘rinishida bajarib, ma‘lum a‘zolar ishini izdan chiqarar ekan:

1. Barchasi mening bo‘ynimda, muammolar mening bo‘ynimda deganlar—osteoxondroz rivojlanishi;

2. Barchasi jonimga tegdi deganlarda — o‘smalar rivojlanishi;

3. Yuragimga qattiq oldim deganlarda — yurak infarkti rivojlanishi;

4. Qonimni ichdi deganlarda—qon kasalliklari rivojlanishi;

5. Sabr kosam to‘ldi deganlarda—gipertoniya rivojlanishi;

6. Eshitgim kelmaydi, o‘chir deganlarda—garanglik rivojlanishi;

7. O‘lgudek charchadim deganlarda—urologik xastaliklar rivojlanishi isbotlangan.

(“Psixoterapiya” telegram sahifasi)

Badiiy matnning ko'rinishlari xilma-xildir. Shunday matnlar borki, tasvirning o'zi olam-olam ma'no kasb etadi:



Rasm 1. Homilador ayolning fiziologik holati

Uning shu turishining o'zi buyuklik emasmi? Ayol sizga yoqmagan alfozda ham qozoningizni jazillatib, chirog'ingizni yoqib yuraveradi. **Homilador holatida** ham o'shanday tinimi yo'q. Ichidagi bolasi uning *o'pka va jigarigacha* chirmovuqday yopishib, bag'ridagi bor mag'zini shimib tursa ham (bekorga **“og'ir oyoq”** demaydilar), oyoqlari shishib, uyqusizlikka duchor bo'lib, beli uzilay desa ham, yotib qolmaydi, ro'zg'orining, oilasining xizmatini qilaveradi. **“Ko'zi yoriydi”** deyilar va bekorga bunday demaydilar. Farzand ko'rish jarayonida ayol “qorong'u go'r”ni ko'rib qaytar ekan. (“Mutoala zavqi” net sahifasidan)

Yuqoridagi tibbiy mazmundagi tasviriy matnning o'zida olam-olam ma'no bor. Tasvirning o'zi (homilador holatdagi ayol va uning jismidagi bola) “ONA” degan nom ostida mo'tabar va mo'zjazok ayol bor ekanligini ko'rsatadi. Tasvir mazmunini ochishda so'zning qudratidan ham foydalanilgan. Tasvir mazmunini ochish uchun keltirilgan parchada lisonimizning qanchalar boyligini ko'rishimiz mumkin: birgina homiladorlik holati bilan bog'liq jarayonni ifodalash uchun quyidagi birikmalardan foydalanilgan— *og'ir oyoq, farzand ko'rish jarayonidagi ayol, ko'zi yoriydi, “qorong'u go'r”ni ko'rib qaytadi*.

Xulosa qilib aytganda, matn va inson omili o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, har bir matn turi inson tafakkuri, his-tuyg'usi, kommunikativ maqsadi hamda ijtimoiy-madaniy qarashlarini aks ettiradi. Turli uslubdagi matnlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish orqali til birliklarining pragmatik va emotsional-ekspressiv imkoniyatlari namoyon bo'ladi. Ayniqsa, tibbiy matnlarda aniqlik, tushunarliklik va kommunikativ yo'naltirilganlik muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois matnni antropotsentrik yondashuv asosida o'rganish inson va til munosabatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Рустамов А. Сўз хусусида сўз.—Тошкент, 1987.
 2. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил.—Тошкент, 1985.
 3. Маҳмудхон Маҳмуд. 1001 тиббий ҳикмат.—Т.: 2013. 13-15 б.
 4. Виноградов В.В. Проблемы русской стилистики. — М.: Высшая школа, 1981. — С.184.
 5. Шмелев Д.Н. Кўрсатилган асар, 4-22-бетлар; Гухман М.М. История языка и текст // Литература. Язык. Культура. —М.: Наука, 1986. — С.252.
- лдашев Маъруфжон Муҳаммаджонович. Бадий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. -Т. 2008